

SUN'IY INTELLEKTNING HUQUQIY ASPEKTLARI: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI

Javohir Mamirxo'jayev

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti.

javohirmamirxojayev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14225905>

Annotatsiya. *Sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan birgalikda, u tomonidan yaratilgan intellektual mulk obyektlarining huquqiy maqomi dolzarb masalaga aylanmoqda. O'tgan asrda sodir bo'lgan misli ko'rilmagan kashfiyotlar va sun'iy intellektning rivojlanishi bugungi kunda nafaqat ilm-fan va texnologiyalar sohasini, balki huquqiy tizimni ham o'zgartirmoqda. Sun'iy intellektning o'zi mustaqil ravishda internetdagi mavjud ma'lumotlar asosida ixtirolar yaratishi, asarlar yozishi va tasviriy san'at asarlarini yaratishi natijasida, ushbu texnologiya tomonidan ishlab chiqarilgan asarlarni mualliflik huquqi bilan himoya qilish masalasi yuzaga kelmoqda. Maqolada sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan intellektual mulk huquqi obyektlarining huquqiy maqomini belgilashdagi murakkabliklar, jahon qonunchiligi va amaliyotidagi tafovutlar hamda bu texnologiyaning iqtisodiy va ijtimoiy foydalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada mazkur muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan qoidalar va huquqiy tartibotlarning shakllanishi yuzasidan tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy Intellekt, Intellektual Mulk, Huquqiy Qiyinchiliklar, Jahon Qonunchiligi.*

LEGAL ASPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INTELLECTUAL PROPERTY LAW

Abstract. *Together with the development of artificial intelligence technologies, the legal status of intellectual property objects created by it is becoming an urgent issue. Unprecedented discoveries of the last century and the development of artificial intelligence today are changing not only the field of science and technology, but also the legal system. As a result of artificial intelligence itself independently creating inventions, writing works and creating works of visual art based on information available on the Internet, the issue of copyright protection of works produced by this technology is arising. The article examines the complexities of determining the legal status of objects of intellectual property rights created by artificial intelligence, the differences in world legislation and practice, and the economic and social benefits of this technology. Also, the article provides recommendations on the formation of rules and legal procedures necessary to solve this problem.*

Keywords: *Artificial Intelligence, Intellectual Property, Legal Challenges, World Legislation.*

ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ЗАКОН ОБ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ

Аннотация. *Вместе с развитием технологий искусственного интеллекта актуальным вопросом становится правовой статус создаваемых им объектов интеллектуальной собственности. Беспрецедентные открытия прошлого века и развитие искусственного интеллекта сегодня меняют не только сферу науки и техники, но и правовую систему. В результате того, что искусственный интеллект самостоятельно*

создает изобретения, пишет произведения и создает произведения изобразительного искусства на основе информации, доступной в сети Интернет, возникает вопрос об охране авторских прав произведений, созданных с помощью этой технологии. В статье рассматриваются сложности определения правового статуса объектов прав интеллектуальной собственности, созданных с помощью искусственного интеллекта, различия мирового законодательства и практики, а также экономические и социальные преимущества этой технологии. Также в статье даются рекомендации по формированию правил и юридических процедур, необходимых для решения данной проблемы.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, интеллектуальная собственность, правовые проблемы, мировое законодательство.*

I.Kirish

Yigirmanchi asrning oxirlaridagi ilm-fan va texnologiyadagi kashfiyotlar texnika sohasida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Yaratish va ixtirochilik faqat insonga xos deb hisoblangan bo'lsa-da, sun'iy intellektning rivoji bu tushunchani o'zgartirdi. Hozirda sun'iy intellekt mustaqil ravishda qaror qabul qilish, ixtiro qilish va san'at asarlarini yaratish qobiliyatiga ega. Sun'iy intellekt orqali yaratilgan texnik ixtirolar va ijodiy ishlar mualliflik huquqlarini himoya qilish masalalarini keltirib chiqarmoqda. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi ixtirochilik va ijodiy faoliyatga ta'sir ko'rsatmoqda. Ammo, sun'iy intellekt yordamida yaratilgan intellektual mulk huquqlari bo'yicha qoidalar hali aniq belgilanmagan. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yilda sun'iy intellekt yordamida 340000 ga yaqin ixtiro patentlangan va 1.6 milliondan ortiq ilmiy nashrlar e'lon qilingan.[1]. Bu sohadagi tez sur'atli rivojlanish intellektual mulk huquqi va uning tijoratlashuvi bilan bog'liq ko'plab savollarni keltirib chiqarmoqda. Quyida bu masalalar atroflicha muhokama qilinadi.

II. Metodolagiya

Sun'iy intellekt texnologiyalari nafaqat yangi materiallarni loyihalash va ishlab chiqarish, balki intellektual mulk huquqlarini boshqarish va ro'yxatdan o'tkazish kabi jarayonlarda ham keng qo'llanilmoqda. Vakolatli davlat tashkilotlari ushbu texnologiyani ixtirolarni texnik sohaga tasniflash, tovar belgilari va xizmatlarni tasniflash, san'at asarlarini tarjima qilish va hujjatlarni tekshirishda samarali vosita sifatida ishlatishmoqda.

Sun'iy intellekt inson aqli orqali bajariladigan vazifalarni avtomatik va mustaqil bajaruvchi texnologiyadir. U qaror qabul qilish, musiqa yaratish va hatto bemorlarga tashxis qo'yish kabi aqliy funksiyalarni mustaqil ravishda amalga oshira oladi. Masalan, JAMA Internal Medicine jurnalidagi tadqiqotga ko'ra tibbiy maslahatlar sohasida ChatGPT shifokorlarni ortda qoldirib, ko'proq "batafsil va chin ko'ngildan" ko'rsatma bergan.[2]

U yuzaga keltirayotgan muammo shundaki u jismoniy shaxs sifatida munosabatga kirishadimi yoki yuridik shaxs sifatida? Ba'zi xorijlik olimlar, sun'iy intellektga nisbatan hayvonlarga oid qoidalarini qo'llash takliflarini ilgari suradilar[3]. Milliy qonunchiligimizda, xususan Fuqarolik kodeksining 93-moddasida qonunchilikda boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, mol mulk to'g'risidagi umumiy qoidalar hayvonlarga nisbatan ham qo'llaniladi, deb belgilangan.

Shuningdek, mazkur kodeksning 1002-moddasiga asosan uy hayvoni tomonidan yetkazilgan zarar uchun uning egasi yoki hayvonning egaligi va foydalanishida umumiy asosda javobgar bo'lgan shaxs mas'ul hisoblanadi deb ko'rsatilgan.

Boshqa guruh olimlarining talqiniga ko'ra, sun'iy intellekt faoliyatiga yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarga o'xshash qoidalarni qo'llash nisbatan samaraliroq bo'ladi.

Yuridik shaxslar kabi, sun'iy intellekt ham sun'iy yaratilgan subyekt bo'lib, maxsus qoidalarga muvofiq faoliyat yuritishi mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyasi model arxitekturasini, algoritmlar va doimiy dasturiy ta'minot elementlariga asoslanadi.

III. Natijalar

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarga mualliflik huquqi berish masalasi xalqaro miqyosda turli munozaralarga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarga mualliflik huquqini berish hech qachon maxsus norma bilan taqiqlanmagan. Biroq, ko'plab mamlakatlarning qonunlari inson tomonidan yaratilmagan intellekt mahsulotini mualliflik huquqi sifatida himoya qilish mumkin emasligi to'g'risidagi qoidalar mavjud. AQShda mualliflik huquqi faqat "aqlning ijodiy faoliyati natijasida yaratilgan" asarlarga beriladi[4]. Avstraliya amalyotida (Acohs Pty MCHJ va Ucorp Pty MCHJ), sud kompyuterning aralashuvi bilan yaratilgan ishni mualliflik huquqi bilan himoya qila olmasligi haqida qaror qabul qilgan, chunki u inson tomonidan ishlab chiqarilmagan deya izohlangan[5].

Boshqa mamlakatlar, jumladan Buyuk Britaniya, Hindiston va Yangi Zelandiya, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarga mualliflik huquqini dasturchiga berishni ko'zda tutadi.

Buyuk Britaniya qonunchiligiga ko'ra, kompyuterda yaratilgan asarlarning muallifi asarni yaratish uchun zarur choralarni ko'rgan shaxs hisoblanadi. Shu bilan birga, dasturchi yoki dastur foydalanuvchisi orasidagi huquqiy noaniqlik mavjud. Bu yondashuv Buyuk Britaniya mualliflik huquqi, sanoat namunalari va patent huquqlari to'g'risidagi 1988-yilda qabul qilingan qonunining 9-moddasi 3-bandida shunday belgilangan[6]: "Kompyuterda yaratilgan adabiy, dramatik, musiqiy yoki badiiy asarlarga nisbatan muallif asarni yaratish uchun zarur bo'lgan tadbirlarni amalga oshiradigan shaxs sifatida tan olinadi."

O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonunida ixtironing subyektiga aniq ta'rif berilmagan. Biroq unda ixtiro muallifi deb ko'rsatib o'tilgan. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs muallif bo'la olishi mumkin, ya'ni ixtiro ham faqatgina inson tomonidan amalga oshirilganda patent talablariga mos hisoblanib, huquqiy muhofaza berilishi mumkin.

Shu bilan birga sun'iy intellekt ishtirokida tovar belgilarining buzilishi bilan bog'liq bir necha sud amaliyotlari mavjud. Masalan, L'Oréal kompaniyasining ishi bunga yaxshi misol bo'la oladi. Bu ishda L'Oréal — Buyuk Britaniyada bir nechta milliy va Yevropa Ittifoqida jamoaviy tovar belgilari bilan himoyalangan fransuz kosmetika kompaniyasi — eBay elektron platformasida uning tovar belgilariga o'xshash bir qator kontrafakt mahsulotlar sotilganini aniqlab, sudga murojaat qilgan[7].

Ushbu kontrafakt mahsulotlar soni 17 ta bo'lib, ular Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan davlatlarda sotilgan.

Mahsulotlardan 2 tasi L'Oréal ro'yxatdan o'tkazgan va guvohnomaga ega bo'lgan tovar belgilariga o'xshash edi, qolganlari esa asosan Shimoliy Amerika bozoriga mo'ljallangan holda eBayda sotuvga qo'yilgan edi. Sud qaroriga ko'ra, eBay javobgarlikka tortilmagan. Sudning izohiga ko'ra, eBay axborot portali sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan tizim bo'lib, vositachi vazifasini bajaradi. Bu tizim odatda mijozlar tomonidan kiritilgan ma'lumotlarni qayta ishlashga yo'naltirilgan va ba'zi hollarda, sotuv takliflarini optimallashtirish yoki targ'ib qilishga yordam beradi.

Shu sababli, sud platformani aybsiz deb topadi

IV. Muhokama

Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan intellektual mulk huquqi obyektlarining huquqiy maqomi bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Hozirgi qonunchilikda aniq yondashuv shakllanmagan, ammo Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiya kabi davlatlar sun'iy intellektga tegishli ba'zi mexanizmlarni joriy etgan. Sun'iy intellektning yaratuvchi sifatida tan olinishi hozircha ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanmasa-da, bu masala kelgusida qayta ko'rib chiqilmoqda.

Qonunchilikda inson omili saqlanib, intellektual mulk huquqlari asosan insonlar – dasturchilar yoki texnologiya egalari – uchun beriladi. Muhokama jarayonida sun'iy intellektni intellektual mulk jarayonida ishtirokchi sifatida tan olish va yangi qonunchilik normalarini ishlab chiqish zarurligi aniqlandi. Bu xalqaro darajada huquqiy muvofiqlik va javobgarlik choralari bilan mustahkamlanishi kerak.

Xulosa

Sun'iy intellekt texnologiyalari tomonidan yaratilgan intellektual mulk huquqi obyektlarini tan olish va himoya qilish dolzarb muammolarni keltirib chiqaradi, lekin bu sohaga ijobiy qadam tashlash imkoniyatlarini ham yaratadi. Shu ma'noda, sun'iy intellektga oid qonunchilikni rivojlantirish va yangilash zarurati ortib bormoqda. Buyuk Britaniya va Yangi Zelandiya kabi davlatlar bunday yondashuvga asos yaratishga harakat qilmoqda. Sun'iy intellektning mustaqil ravishda qaror qabul qilishi va inson aqliga o'xshash funksiyalarni amalga oshirishi tufayli, kelajakda ularning yanada murakkab jarayonlarni bajarishi ajablanarli hol emas. Bu esa texnologiyani tartibga soluvchi qonunchilik tizimining muhimligini oshiradi.

Sun'iy intellekt tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar va ularning javobgarligini belgilovchi normativ-huquqiy bazaning yaratilishi kerak. Shuningdek, sun'iy intellekt yaratuvchilari va foydalanuvchilari o'rtasida mulkiy huquqlarni taqsimlash masalalari, ijodiy asarlarni yaratishda mualliflik huquqi mas'uliyatlarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Bu qadamlar texnologiyaning xavfsiz va adolatli foydalanilishini ta'minlaydi.

REFERENCES

1. WIPO. (2019). *WIPO Technology Trends 2019: Artificial Intelligence*. Geneva: WIPO.
2. Ayers, J. W., Poliak, A., Dredze, M., et al. (2023). Comparing physician and artificial intelligence chatbot responses to patient questions posted to a public social media forum. *JAMA Internal Medicine*. <https://doi.org/10.1001/jamainternmed.2023.1838>
3. Bozorov, S. (2022). Sun'iy intellekt javobgarligining axloqiy va huquqiy taomillari. *Obshchestvo i Innovatsii*, 3(3), 48–56.

4. *Feist Publications, Inc. v. Rural Telephone Service Co.*, 499 U.S. 340 (1991). Retrieved from <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/499/340/#344>
5. *Acohs Pty Ltd v Ucorp Pty Ltd* [2012] FCAFC 16 (2 March 2012). Retrieved from <http://www8.austlii.edu.au/cgi-bin/viewdoc/au/cases/cth/FCAFC/2012/16.html>
6. UK Government. (1988). Copyright, Designs and Patents Act 1988, section 9(3). Retrieved from <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1988/48/section/9>
7. *L'Oréal SA v. eBay International AG.* (2011). Retrieved from <https://globalfreedomofexpression.columbia.edu/cases/loreal-sa-v-ebay-international-ag/>